

Mundarija

Kirish	
1-bob. Eeasy_Website_Pro4 dasturi hamda elektron sahifalar yaratuvchi dasturlar haqida mavjud manbalar tahlili	
1.1. Elektron sahifa yaratish tillari va dasturiy vositalari tarixi	
1.2. Mustaqil ta`limni tashkil etishda elektron uslubiy ta`minotlardan foydalanishni o`quv jarayonidagi ahamiyati.....	
1.3. Masalaning qo`yilishi	
2-bob. Eeasy_Website_Pro4 dasturi va uni o`rnatish talablari, dasturiy mahsulotlar va Web-saytlar yaratish vositalari	
2.1. Elektron uslubiy ta`minot mazmuni, tuzilmasi va dasturiy ta`minotga talablar	
2.2. Dasturiy ta`minotni o`rnatish talablari va o`rnatish bosqichlari	
2.3. Easy_Website_Pro4 dasturida shablonlar, rasmlar va multimedia imkoniyatlardan foydalanish.....	
3-bob. Eeasy_Website_Pro4 dasturida sahifalar yaratish bo`yicha multimediali dasturiy mahsulot ishlab chiqish	
3.1. Easy_Website_Pro4 dasturida Web sahifa yaratish algoritmi	
3.2. Easy_Website_Pro4 dasturida ishlash bo`yicha Web sahifa yaratish.....	
3.3. YAratilgan sahifani qo`llash yo`riqnomasini ishlab chiqish.....	
4-bob. Hayot faoliyati xavfsizligi	
4.1. Elektron sahifalar ishlab chiqishda kompyuter xonalarida hayot faoliyati xavfsizligi.....	
4.2. Kompyuter xonasiga bo`lgan gigienik talablar va uning yoritilishi.....	
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	
Ilova	

Kirish

«Yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur».

I. A. Karimov

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasalari kompyuter va texnik vositalar bilan yetarlicha ta'minlangan bo'lsa-da, ulardan ta'lim jarayonida foydalanish uchun pedagog xodimlar o'z ustilarida tinimsiz ishlashlari, malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlari talab qilinadi. Chunki, kompyuter texnologiyalari bo'yicha yangiliklar, o'zgarishlar shu darajada tez sodir bo'lmoqdaki, ba'zi dasturlarni o'rganishni boshlash bilan uni yangi versiyalari juda tezlik bilan chiqib kelmoqda. Shu sababli, ta'lim jarayonida texnik vositalardan keng foydalanish, Internet tarmog'ida axborot izlash, olish va saqlash masalasi o'quv-metodik qo'llanmalar tayyorlash va ularni tatbiq etish uchun mo'ljallangan seminar-treninglarni o'tkazishga zarurat tug'dirmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2016 yil 15 yanvar kungi mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida "... Shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda jahon miqyosida yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning taxminan 5,5 foizi axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasiga to'g'ri kelmoqda. Nufuzli xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, 2020 yilda bu ko'rsatkich 9 foizdan oshadi..." – degan aniq fikrlarni keltirib o'tdilar. Bu fikrlarini o'zi ham ko'rsatib turibdiki, biz bo'lg'usi o'qituvchilar oldiga bugungi kun talabiga to'la javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashdek juda katta mas'uliyat yuklanayotganligidan dalolat beradi.

Ta'lim tizimidagi chuqur va keng ko'lamlı islohotlarning mazmuni va amalga oshirish muddatlari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z ifodasini topgan. Jumladan, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'kidlanganidek, «Kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish» lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 7 yanvardagi PQ-2282-sonli 2015 yilda "Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi dasturi va 2016 yilgi qurilishning asosiy parametrlari to'g'risida"gi qarori ham shu soha mutaxassilarini tayyorlashda pedagog xodimlarni o'z ustida ishlashi hamda chuqur bilim va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yana bir bor undaydi.

O'zbekiston Respublikasi shakllanayotgan global axborot jamiyatida munosib o'rinni egallashga intilmoqda. Ushbu maqsadlarga erishish uchun hukumatimiz tomonidan respublikamizda axborotlashtirish jarayonlarini faollashtirish, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini tez sur'atlarda rivojlantirish, ularni iqtisodiyot va jamiyatning barcha sohalarida joriy etish hamda foydalanishning strategik ustuvorliklari belgilandi.

Respublikamizda o'qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirishni jadallashtirish iqtisodiyotni rivojlantirayotgan mamlakatlarga qaraganda yanada dolzarb ahamiyatga ega. Chunki hozirgi kunda milliy ta'lim tizimining salohiyati iqtisodiy rivojlanishning yanada yuqori pog'onasiga ko'tarilishga amaliy imkoniyat ta'minlovchi asosiy ijtimoiy resurs sifatida gavdalanadi. Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarining qo'llanilishi o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini yanada oshiradi, o'z navbatida o'qituvchini ham, talabani ham ijodiy izlanishga undaydi. Bunda o'qituvchiga o'quv jarayonida tashkil etishda mavjud elektron adabiyotlardan, multimedia vositalaridan, o'rgatuvchi dasturiy ta'minotlar va boshqa axborot texnologiyalaridan foydalanishi talabaga mavzu haqida ko'proq ma'lumotlar olish imkoniyatini yaratadi. Hozirgi kunda har bir mutaxassisdan axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini bilish va uni amaliyotga qo'llay olish talab qilinmoqda.

Fan sohasini formal tasnifi. O'quv fanining dolzarbligi va zarurligi shundan iboratki, o'quvchilar fanni o'zlashtirish davomida professional darajadagi bilimlarni o'zlashtirish, turli shakldagi sahifalarni yaratishda foydalaniladigan dasturiy vositalar, Easy_Website_Pro4, Web Builder, Web Creator va shunga o'xshash web-saytlarning yaratish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minotlar va multimedia qurilmalari bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Multimedia tizimlari yo'nalishi mutaxassisliklari uchun bunday dasturlar bilan ishlash juda muhim hisoblanadi. Bunday dasturiy vositalarni yaxshi bilgan mutaxassis o'z g'oyalarini ilgari surish, o'z loyihalarini ishlab chiqish, turli animasion taqdimotlarga ega sahifalarni ishlab chiqish va tushuntirish uchun juda yaxshi imkoniyatlarga ega bo'ladi.

«Web dasturlash» fani orqali hozirgi kunda kompyuter grafikasining turli sohalarida keng foydalanilayotgan turli sahifalarni yaratish dasturi hisoblangan Eeasy_Website_Pro4 dasturi bilan ishlash asoslarini o`rgatish ko`zda tutilgan.

Ushbu fanda Eeasy_Website_Pro4 dasturida sayt yaratish bo`yicha mustahkam bilimlar bazasini yaratish uchun zarur bo`lgan mavzular ko`riladi. Fanda statik va dinamik tasvir va sahifalarni yaratish metodikasi, shablonlar yordamida sahifalarni modellashtirish, sahifani tahrirlash, materiallar bilan ishlash, giperishoratlar bilan ishlash usullari o`rgatiladi. Alohida mavzular tayyor shablonlarni vizuallashtirish, maxsus effekt va animasiyalarni yaratishga bag`ishlangan.

Ushbu sohadagi muammolar va mazkur ishning zarurati. Bitiruv malakaviy ishi mavzusida keltirilgan muammo zamirida kasb-hunar kolleji talabalarining multimedia tizimlari kichik mutaxassislarini tayyorlash bo`yicha davlat ta`lim standarti asosida o`qitiladigan mutaxassislik fani mustaqil ta`limidagi Web dasturlash imkoniyatlarini o`rganishda mustaqil ta`lim sifatida elektron uslubiy ta`minot yaratish va bu dastur imkoniyatlarini yanada kengroq ochib berish masalasi yotadi. Ushbu muammoni hal qilish orqali talabalarni mutaxassislik fanlarini chuqur o`zlashtirishlari hamda kelgusida soha bo`yicha o`z faoliyatlarini olib borishlarida maxsus elektron uslubiy ta`minot bo`lib xizmat qilishi nazarda tutiladi. Bugungi kunda bunday dastur ishlab chiqilmagan. SHu sababli bu mavzuni dolzarb hamda kasb-hunar kolleji talabalari uchun muhim deb hisoblash mumkin.

Loyihaning maqsadi va vazifalari (samaradorligini oshirish, sifatini yaxshilash). Bitiruv malakaviy ishi mavzusida keltirilgan Eeasy_Website_Pro4 dasturida Web sahifa yaratish bo`yicha elektron uslubiy ta`minot yaratishdan asosiy maqsad sifatida talabalarning mustaqil bilim olishlari samaradorligini oshirish, turli sahifalarni yaratish hamda o`quvchilarni ko`roq bilim olishlari va yetuk mutaxassis bo`lib yetishlarida maxsus sahifa yaratish dasturi imkoniyatlarini ochuvchi maxsulot yaratishga erishishdan iborat.

Masalaning noformal tavsifi (mazkur ishning maqsadi). Keltirib o`tilgan bitiruv malakaviy ishida kasb-hunar kollejarining Informatika va axborot texnologiyalari, Multimedia tizimlari va texnologiyalari bo`yicha kichik mutaxassislar uchun mutaxassislik fanlari blokidagi Web dasturlash fanining mustaqil ta`lim soatida Eeasy_Website_Pro4 dasturida Web sahifa yaratish bo`yicha talabalar bilimini yanada oshirish uchun uslubiy ta`minot yaratish va ushbu dasturni o`quv jarayonida mavzuga qo`llash hamda yetarli samaraga erishish ishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. **Eeasy_Website_Pro4 dasturida Web sahifa yaratish bo`yicha elektron uslubiy ta`minot yaratish** mavzusi bo`yicha tayyorlangan malakaviy bitiruv ishi asosan quyidagi qismlardan tashkil topgan. Bular, kirish, asosiy qism, hayot faoliyati xavfsizligi, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar bo`limlaridan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida O`zbekiston respublikasining ta`lim axborot tarmog`ini tashkil etish bo`yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavzuning dolzarbligi hamda bitiruv malakaviy ishining tuzilishi bo`yicha zaruriy ma`lumotlar keltirib o`tiladi. Mavzuning dolzarbligi, uning bugungi kun nuqtai nazaridan talqin qilinib, uning haqiqatda dolzarb masala masala ekanligi asoslab beriladi.

Asosiy qism esa, 4 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan bo`lib, 1-bobda Eeasy_Website_Pro4 dasturida Web sahifa yaratish bo`yicha elektron uslubiy ta`minot yaratishga oid manbalar tahlil qilinib, asosiy masala shakllantirib olinadi. Xususan, elektron sahifa yaratish tillari va dasturiy vositalari tarixi, ularni rivojlanish bosqichlarini o`rganish, mustaqil ta`limni tashkil etishda elektron uslubiy ta`minotlardan foydalanishni o`quv jarayonidagi ahamiyatini asoslash orqali masalani hal qilish lozim bo`lgan qismini ajratib olish va masalaning qo`yilishi keltirib o`tiladi.

2-bobda Eeasy_Website_Pro4 dasturi va uni o`rnatish talablari, dasturiy mahsulotlar va Web-saytlar yaratish vositalarini tahlil qilish asosida mavzuga tegishlisini ajratib olish, Eeasy_Website_Pro4 dasturi imkoniyatlarini ochib berish, dasturiy ta`minotni o`rnatish talablari va o`rnatish bosqichlarini shakllantirish amalga oshiriladi. SHuningdek, Eeasy_Website_Pro4 dasturida shablonlar, rasmlar va multimedia imkoniyatlardan foydalanishni tashkil etish bosqichlarini asoslash va tahlil qilish masalalari ko`rib o`tiladi.

3-bobda Eeasy_Website_Pro4 dasturida sahifalar yaratish bo`yicha multimediali dasturiy mahsulot ishlab chiqish, Eeasy_Website_Pro4 dasturida Web sahifa yaratish algoritmini ishlab chiqish, Eeasy_Website_Pro4 dasturida “Kompyuter grafikasi” moduliga oid Web sahifa yaratish hamda YAratilgan sahifani qo`llash yo`riqnomasini ishlab chiqish ishlari amalga oshiriladi.

Hayot faoliyati xavfsizligi bo`limida elektron sahifalar ishlab chiqishda kompyuter xonalarida hayot faoliyati xavfsizligi qoidalarini ishlab chiqish, shuningdek kompyuter xonasiga bo`lgan gigienik talablar va uning yoritilishini tahlil qilish va qoidalarini ishlab chiqish vazifalari amalga oshiriladi IIIuningdek, umumiy tahlillari keltirib o`tiladi.

Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar bo`limlarida esa, bitiruv malakaviy ishini bajarish bo`yicha umumiy xulosalar, takliflar va ishni bajarish jarayonida foydalanilgan adabiyotlar hamda tavsiya etiladigan qo`shimcha adabiyotlar keltirib o`tiladi.

Malakaviy bitiruv ishining izoh bo`limida yaratilgan dastur matni keltirib o`tiladi. Uningdek, shu mavzuga tegishli bo`lgan internet ma`lumotlari ham keltirib o`tiladi.

1-bob. Eeasy_Website_Pro4 dasturi hamda elektron sahifalar yaratuvchi dasturlar haqida mavjud manbalar tahlili

Bu bobda Eeasy_Website_Pro4 dasturida Web sahifa yaratish bo'yicha elektron uslubiy ta'minot yaratishga oid manbalar tahlil qilinib, asosiy masala shakllantirib olinadi. Xususan, elektron sahifa yaratish tillari va dasturiy vositalari tarixi, ularni rivojlanish bosqichlarini o'rganish, mustaqil ta'limni tashkil etishda elektron uslubiy ta'minotlardan foydalanishni o'quv jarayonidagi ahamiyatini asoslash orqali masalani hal qilish lozim bo'lgan qismini ajratib olish va masalaning qo'yilishi keltirib o'tiladi.

1.1. Elektron sahifa yaratish tillari va dasturiy vositalari tarixi

Mustaqil O'zbekistonimizda kibernetika va informatikaning taraqqiyot yo'li qanday kechdi va bu fanlarning rivojlanish istiqbollari qanday, degan savollar xaqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Kibernetika va informatika sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va halq xo'jaligiga joriy etish maqsadida 1956 yilda akademik M.T. O'rozboev tashabbusi bilan Uzbekiston Fanlar Akademiyasi tarkibida V.I. Romanovskiy nomli Matematika instituti qoshida xisoblash texnikasi bo'limi ochildi. Unga V.q.qobulov raxbar etib tayinlandi va 1958 yilda Respublikamizda ilk bor «Ural-1» rusumli eUM o'rnatildi.

1966 yilda Markaziy Osiyo mintaqasida Uzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tarkibida xisoblash markazi bo'lgan Kibernetika instituti, 1978 yilda esa uning asosida Kibernetika ilmiy ishlab chikarish birlashmasi tashkil etildi.

Xalq xo'jaligidagi turli masalalarni hal etishda algoritmlashtirish nazariyasini yaratish va rivojlantirishga akademik V.Q.Qobulov boshchiligidagi birlashmaning yetakchi olimlari O'zbekistonda kibernetikaning tarkib topishi va rivojlanish bosqichiga ulkan xissa qo'shishdi. Tasvirlarni tekshirib bilish va sun'iy intellekt nazariyalari bo'yicha katta maktab yaratgan akademik M.M. Komilov, matematik modellashtirish va xisoblash eksperimenti, matematika va mexanikaning murakkab vazifalarini hal etishning mikdoriy-taxliliy usullari bo'yicha akademiklar F.B. Abutaliev, B.A. Bondarenko, T. Bo'riev, axborotni qayta ishlash bo'yicha — akademiklar D.A. Abdullaev, T.F. Bekmuratov, kibernetika fanining turli yo'nalishlari bo'yicha ulkan maktablar o'zagini yaratgan professorlar T.A. Valiev, F.T. Odilova, Z.T. Odilova, O.M. Nabiev, D.N. Axmedov, R.S. Sa'dullaev, Z.M. Solixov, N. A. Mo'minov, ta'lim sohasini kompyuterlashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy izlanishlar olib borgan va bu soxaning rivojlanishiga katta xissa qo'shgan professor M.Ziyoxo'jaev va boshqalarning katta xizmatlarini ta'kidlash lozim.

Olimlarimizning izlanishlari va mehnatlari samarasida, bugungi kun mutaxassislari tomonidan yangi yaratiladigan dasturiy ta'minotlarda Vatanimiz shuhratini olamga yoygan fan va madaniyatning gullab yashnashi uchun xizmat qilgan vatandoshlarimiz: Abu Nosir al Farobiy, Ahmad ibn Muhammad al Faorg'oni, Muhammad ibn Muso al Xorazmiy, Abu Rayhon al Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulugek va boshqa allomalarning fizika, texnika, matematika va tibbiyot sohalaridagi ibratli ishlari yoritilgan maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero dasturiy ta'minotlarda millat fikrining, millat tafakkurining va millat mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etishi zarur. Elektron uslubiy ta'minotlar to'g'risida fikr yuritishdan oldin, ularning hususiyatlari to'g'risida to'htalamiz. Elektron izohli dasturiy ta'minot, o'ziga xos xususiyatlarga ega va aynan;

- 1) o'quv materialini bilimlarning ma'lum sohasi bo'yicha bayon qilinishi;
- 2) o'quv materialini fan, texnika, texnologiya va madaniyatning zamonaviy yutuqlari darajasida yoritilishi;
- 3) o'quv materialini dasturiy ta'minotda tizimli bayon qilinishi, ya'ni berilayotgan axborotni butunligini ta'minlaydigan, ma'noli munosabat va aloqali, ko'plab elementlardan tashkil topgan butun tugallangan asarni o'zida tasvirlaydi.

Foydalanishda va ishlab chiqish maqsadlariga bogliq ravishda ko'p funksiyaliligini ta'minlash uchun elektron uslubiy ta'minotlar turli xildagi tuzilmalarga ega bo'lishi mumkin. Masalan darslarda foydalanish uchun aniq bir fan bo'yicha o'quv dasturiga mos keladigan elektron dasturiy ta'minotni yaratish va o'quv materialini mavjud mavzuni rejalashtirish asosida berish mumkin. Elektron uslubiy ta'minotni mavzuiy rejalashtirishga bog'lamasdan, balki shunchaki konkret ta'lim bosqichi bo'yicha o'quv rejasiga rioya qilib aniq bir fan kesimida ishlab chiqish mumkin.

1.2. Mustaqil ta'limni tashkil etishda elektron uslubiy ta'minotlardan foydalanishni o'quv jarayonidagi ahamiyati

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 343-sonli qarori hamda Oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005 yil 21 fevraldagi 34-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risida"gi namunaviy Nizom ishlab chiqilgan. Ushbu nizomda talabalarning mustaqil ishlarining maqsad va vazifalari to'liq keltirib o'tilgan bo'lib, unda " axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish: kutubxonadan o'quv adabiyotlarini kerakli davr uchun olib, o'z vaqtida topshirish; kafedralar kutubxonasidan foydalanish mexanizmini ishlab chiqish: kompyuterlar xotirasidagi axborot manbalarini talabalar disketlariga yozib berish tartibini belgilash..." kabi asosiy vazifalar keltirib o'tiladi.

O'quvchilarning mustaqil ishi o'quv rejasidagi umumta'lim, umumkasbiy va maxsus fanlarni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, uslubiy, ilg'or pedagogik va axborot resurslari jihatdan ta'minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'quvchilarning haftalik mustaqil ishlarining umumiy hajmi 16 soatni tashkil etadi.

O'quv semestri yakunida o'quvchining mustaqil ishi bo'yicha to'plagan reyting ballari har bir fan bo'yicha auditoriyadagi o'quv ishlariga berilgan reyting ballari bilan birgalikda guruh reyting qaydnomasida, o'quvchining reyting daftarchasida (qaysi fandan mustaqil ish bajarilganligi aniq ko'rsatiladi) va o'qish yakunida bitiruvchiga taqdim etiladigan diplom ilovasida qayd etiladi.

Akademik lisey va kasb-hunar kolleji o'quvchilari mustaqil ishining asosiy maqsadi fan o'qituvchisining rahbarligi va nazorati ostida o'quvchi umumta'lim va kasbiy fanlar, kasb va ixtisosliklar bo'yicha nazariy va amaliy ishlarni mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, fikrlash va ijodkorligini oshirish, axborot kommunikasion texnologiyalar bilan mustaqil ishlash qobiliyatlarini yuksaltirishdir.

O'quvchi mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

-umumta'lim fanlarini mustaqil o'rganishda kutubxona fondida mavjud bo'lgan o'quv adabiyotlaridan foydalanish, berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish;

-tanlagan mutaxassisligi va kasbi bo'yicha bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda o'zlashtirishda fan o'qituvchilari va muhandis-pedagoglar maslahatlaridan foydalanish;

-elektron darsliklar, elektron multimediali o'quv qo'llanmalaridan va kasbga oid boshqa ma'lumotlarni fan o'qituvchilari va muhandis-pedagoglar yordamida o'zlashtirish;

-internet va elektron pochta tarmog'idan foydalanishni o'zlashtirish;

-mustaqil ishning natijalarini kasbiy fanlar kafedralarida guruh o'quvchilari ishtirokida taqsimot qilish (referat, kurs ishi, turli model va sxemalar).

O'quvchi mustaqil ishini tashkil etishda muayyan bir kasbiy fan (kurs)ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir o'quvchining akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

-ayrim kasbiy fanlarning nazariy mavzularini o'quv adabiyotlari, didaktik materiallar hamda elektron o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

-ta'lim muassasasining o'quvchilar konferensiyalari va seminarlarida ma'ruzalar bilan qatnashish;

-laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;

-kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;

-o'quv va ishlab chiqarish amaliyotidagi amaliy ko'nikmalarni maxsus adabiyotlardan foydalanib mustahkamlash;

-turli ko'rgazmalarda mustaqil ish natijalari bo'yicha ijodiy ish namunalari bilan (kasb va ixtisosliklarga oid modellar, sxemalar va detallardan namunalarni tayyorlash) qatnashish;

-anjuman va ko'rik tanlovlarda mustaqil ish natijalari asosida tayyorlangan maketlar bilan qatnashish;

-fanlardan uyga berilgan topshiriqlarni bajarish. O'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o'quvchi mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanishi mumkin.

O'quv fanlari bo'yicha namunaviy va ishchi reja hamda dasturlarda o'quvchi mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

O'quvchi mustaqil ishi uchun ajratilgan vaqt byudjetiga mos ravishda har bir fan bo'yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriqlar variantlari ishlab chiqiladi va kafedrada tasdiqlanadi.

Mustaqil ish bajarish uchun kafedralarda fanlar bo'yicha o'quvchilarga zaruriy metodik tavsiyanoma va yo'riqnomalar, qo'llanma hamda ko'rsatmalar ishlab chiqiladi.

SHuni ta'kidlash joizki, yangi yaratiladigan darslik, o'quv qo'llanalarida Vatanimiz shuhratini olamga yoygan fan va madaniyatning gullab yashnashi uchun xizmat qilgan vatandoshlarimiz: Abu Nosir al Farobiy, Ahmad ibn Muhammad al Faorg'oniy, Muhammad ibn Muso al Xorazmiy, Abu Rayhon al Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulugek va boshqa allomalarning fizika, texnika, matematika va tibbiyot sohalaridagi ibratli ishlari yoritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero darsliklarda millat fikrining, millat tafakkurining va millat mafkurasining eng ilg'or namunalari

aks etishi zarur. Elektron uslubiy ta`minotlar to`g`risida fikr yuritishdan oldin, ularning bosma darsliklardan farqli hususiyatlari to`g`risida to`xtalamiz. Klassik tushunchada darslik bu o`quvchilar uchun kitob bo`lib, unda bilimlarning ma`lum sohasidagi o`quv materiali fan, texnika va texnologiya, hamda madaniyatning zamonaviy yutuqlari darajasida tizimli bayon qilinadi. Demak, elektron uslubiy ta`minot ham, bosma uslubiy ta`minot ham umumiy belgilarga ega va aynan:

- 1) o`quv materiali bilimlarning ma`lum sohasi bo`yicha bayon kilinadi;
- 2) o`quv materiali fan, texnika, texnologiya va madaniyatning zamonaviy yutuqlari darajasida yoritiladi;
- 3) o`quv materiali uslubiy ta`minotlarda tizimli bayon qilinadi, ya`ni ta`minotning butunligini ta`minlaydigan, ma`noli munosabat va aloqali, ko`plab elementlardan tashkil topgan asarni o`zida tasvirlaydi.

Xorijiy davlatlarda uslubiy va axborot dasturli vositalarni ishlab chiqish uchun yuqori malakali psixologlar, maxsus fan o`qituvchilar, kompyuter dizaynerlari va boshqa mutaxassislar jalb etiladi. yetakchi korxonalar va firmalari o`quv yurtlarida kompyuterli o`quv tizimlarini yaratish loyihalarini moliyalashtiriladi va bu sohada izlanishlar olib borishadi. Ilk o`quv elektron dasturlik vositalarni yaratish uchun bevosita dasturlashtirish texnologiyasidan foydalanilgan. Dasturchi sifatida ko`pincha oliy o`quv yurtlarining yuqori bosqich talabalari va aspirantlari ishtirok etishgan.

Mustaqil ta`lim olishning yana bir afzallik jihati shundaki, unda zamonaviy axborot-kommunikasiya vositalariga murojaat qilish, shu asosida kompyuter hamda informasion texnologiyalar bilim va ko`nikmalariga ega bo`lish o`z-o`zidan amalga oshiriladi. Bugungi kunga kelib axborot tezligi maksimal darajaga yetgan bo`lib, global tarmoqdan istalgan ma`lumotni bir necha soniyada, istalgan (matnli, grafikli, rasmlil, audio va video) ko`rinishda qabul qilish, saqlash, foydalanish va o`zgartirish mumkin. Bu esa o`z ustida ishlayotgan har bir talabaga izlanishdan to`xtab qolmasligi uchun yangi fikrlar va g`oyalar beradi.

1.3. Masalaning qo`yilishi

Biz yuqorida elektron uslubiy ta`minotlarni, o`quv jarayonida foydalanish mumkin bo`lgan didaktik materiallarni yaratish bo`yicha respublikamizda olib borilayotgan faoliyatlar tahlili hamda mustaqil ta`lim, dars mashg`ulotlarida dasturiy mahsulotlarni tahlil qilib o`tdik. Bitiruv malakaviy ishi mavzusida keltirib o`tilgan Easy_Website_Pro4 dasturida Web sahifa yaratish bo`yicha elektron uslubiy ta`minot yaratish masalasi dolzarb masala ekanligini alohida keltirib o`tdik. Bitiruv malakaviy ishida kutiladigan natijadan kimlar va qayerda foydalanishidan kelib chiqib, ishda quyidagi muammolarni hal qilish talab qilinadi:

- Easy_Website_Pro4 dasturi hamda elektron sahifalar yaratuvchi dasturlar haqida mavjud manbalar tahlilini amalga oshirish;
- Elektron sahifa yaratish tillari va dasturiy vositalari tarixi, ularni rivojlanish bosqichlarini o`rganish;
- Mustaqil ta`limni tashkil etishda elektron uslubiy ta`minotlardan foydalanishni o`quv jarayonidagi ahamiyatini asoslash orqali masalani hal qilish lozim bo`lgan qismini ajratib olish;
- Easy_Website_Pro4 dasturi va uni o`rnatish talablari, dasturiy mahsulotlar va Web-saytlar yaratish vositalarini tahlil qilish asosida mavzuga tegishlisini ajratib olish;
- Easy_Website_Pro4 dasturi imkoniyatlarini ochib berish;
- Dasturiy ta`minotni o`rnatish talablari va o`rnatish bosqichlarini shakllantirish;
- Easy_Website_Pro4 dasturida shablonlar, rasmlar va multimedia imkoniyatlardan foydalanishni tashkil etish;
- Easy_Website_Pro4 dasturida sahifalar yaratish bo`yicha multimediali dasturiy mahsulot ishlab chiqish;
- Easy_Website_Pro4 dasturida Web sahifa yaratish algoritmini ishlab chiqish;
- Easy_Website_Pro4 dasturida “Kompyuter grafikasi” moduliga oid Web sahifa yaratish;
- Yaratilgan sahifani qo`llash yo`riqnomasini ishlab chiqish;
- Elektron sahifalar ishlab chiqishda kompyuter xonalarida hayot faoliyati xavfsizligi qoidalarini ishlab chiqish;
- Kompyuter xonasiga bo`lgan gigienik talablar va uning yoritilishini tahlil qilish va qoidalarini keltirish;
- Bajariladigan bitiruv malakaviy ishida olingan natijalarni xulosalash;
- ishni bajarishda foydalanilgan adabiyotlarni keltirib o`tish va turli xil ilovalar asosida asoslash talab kilinadi.

Yuqoridagi masalaning qo`yilishida keltirib o`tilgan fikrlardan ko`rinadiki, elektron uslubiy ta`minotlarni ishlab chiqish mavzuning mazmunini yanada yaxshiroq ochib beradi. Xususan, kasb-xunar kollejlarda va oliy ta`lim muassasalarida o`qitiladigan Web sahifa yaratishga oid fanlar bo`yicha mustaqil ta`lim olish uchun, qolaversa, multimedia tizimlariga qiziquvchi talabalar uchun Web sahifa yaratish bo`yicha elektron uslubiy ta`minot yaratish har bir o`quvchi, izlanuvchi uchun yangi axborot texnologiyalarini qo`llab ilm olish saviyasini oshirib beradi.

2-bob. Eeasy_Website_Pro4 dasturi va uni o`rnatish talablari, dasturiy mahsulotlar va Web-saytlar yaratish vositalari

Bu bobda asosan Eeasy_Website_Pro4 dasturi va uni o`rnatish talablari, dasturiy mahsulotlar va Web-saytlar yaratish vositalarini tahlil qilish asosida mavzuga tegishlisini ajratib olish, Eeasy_Website_Pro4 dasturi imkoniyatlarini ochib berish, dasturiy ta`minotni o`rnatish talablari va o`rnatish bosqichlarini shakllantirish amalga oshiriladi. SHuningdek, Eeasy_Website_Pro4 dasturida shablonlar, rasmlar va multimedia imkoniyatlardan foydalanishni tashkil etish amalga oshiriladi.

2.1. Elektron uslubiy ta`minot mazmuni, tuzilmasi va dasturiy ta`minotga talablar

Elektron uslubiy ta`minotning asosiy tarkibi quyidagilarni o`z ichiga olinish kerak:

- tayanch ma`ruza matni
- ma`ruza matni;
- detallashtirilgan kurs;
- kursning ayrim bilimlarini chuqurlashtirish;

Elektron uslubiy ta`minot yaratishning boshlang`ich bosqichida birinchi va ikkinchi bandlarda ko`rsatilgan ma`ruza matnlari bilan ish olib boriladi. Uchinchisi uchun bu asos qilib olingan qo`llanma (yoki ishlanma) hisoblanadi. To`rtinchisi bir nechta bo`limlarni chuqur o`rganishga qaratilgan.

Elektron uslubiy ta`minot (yoki ishlanma) va uning har bir bo`limidagi asosiy materialni berishdan oldin kirish qismini ifodalash kerak. Bundan tashqari elektron qo`llanmada adabiyotlar ro`yxati va glossariy ham bo`ladi.

Kirish qismi Bu qism materialining tuzilmasi mukammal ishlab chiqilgan bo`linishkerak (butun kursning va bo`limlarning tarkibi hamda ular orasidagi bog`lanishlar ko`rsatiladi). Bu qism quyidagilarni o`z ichiga olidai:

- ☞ D.T.S. asosida yaratilgan kursning qisqacha o`quv dasturi, maqsadi va asosiy vazifalari, ularning yechimlarini muhimligi va dolzarbliligi;
- ☞ Kursni o`zlashtirish uchun kerakli bo`lgan fanlar ro`yxati;
- ☞ Kursning bilimlari asosida o`zlashtiradigan fanlar ro`yxati;
- ☞ Kurs (bilim)ning tuzilmasi, uning funksional va mantiqiy bog`lanish;
- ☞ Kursni o`rganish bo`yicha umumiy tavsiyalar (shu jumladan, qaychi bilimlarni bog`lanmagan xolda mustaqil o`rganish mumkinligini);
- ☞ O`quv dasturi doirasidan chiquvchi, kursni rivojlanish va chuqur o`rganish bo`yicha ko`rsatmalar, ayrim mutaxassislar guruhi uchun kursning qaychi bo`limlarini o`rganilishi, izohlar uchun adabiyotlarga murojaat qilishlar ko`rsatiladi

Asosiy material. Har bir bo`limga kirish qismidan tashqari quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir;

- ❖ Vazifani qo`yilishi (muammoni ko`rsatish);
 - ❖ Asosiy vazifalar va ularning yechimining ahamiyatini ko`rsatish;
 - ❖ Kursning, bo`limning turli holatlari bo`yicha geometrik, fizik illyustrasiyalar, mulptiplisasiyalar, kliplar
 - ❖ Audiofragmentlar;
 - ❖ Vazifani yechishda kerak bo`ladigan bo`limlar va shu bo`limning yechimini ishlatiladigan bo`limlar ro`yhati;
 - ❖ Amaliy ishlatilishi ko`rsatilgan xolda uslublar, usullar;
 - ❖ Natijalarni «fizik»interpretasiyalari (formulasiz);
 - ❖ Qo`yilgan vazifani yechishning boshqa usullari;
 - ❖ Ushbu natijalarni ishlatiladigan va ko`p uchraydigan texnikaviy ilovalar;
 - ❖ Oldingi materillardagi kerakli bilimlarga murojaatlar, yo`naltirishlar;
- Xar bir mavzuda misol va masalalar bulishi kerak:
- ★ Bayon kilingan xolda (tulik yechimi bilan)
 - ★ Mustakil yechish uchun (kursatmalar va javobi bilan):

★ Nazoratni yechish uchun (utilgan bulimlarni kayta uzlashtirishni yoki attestasiya natijasini kursatgan xolda)

★ O`rganilgan bulimlar bog`lanish buyicha nazorat savollari.

Elektron uslubiy ta`minotlarning asosiy matnini berishda muammoli yunaltirish («case studio») usulini ko`lash taklif etiladi. Bu usulda emas (nazariy material-echish usullari –ko`rsatuvchi misol), balki, anik vazifani kuyish va yechish natijasida tanishadi.

Elektron uslubiy ta`minotning har bir bo`limi quyidagi qismlardan iborat bo`lishi mumkin:

***Nazariy qism.** rasmlar, jadvallar, audio va videoyujetlar va boshqalar kiritilgan gipermatn asosida tayyorlanadi. Gipermatnga qo`shimcha sifatida qo`rgazmali kompyuterli modellar bo`lish mumkin. Ular yordamida o`rganilayotgan ob`ekt yoki jarayon dinamikada ko`rsatiladi hamda turli parametrlarni o`zgartirish yo`li bilan ularni ob`ekt yoki jarayonga ta`siri o`rganiladi.

***Amaliy qism.** O`quv kursining namunaviy vazifalarini va mashqlarini qadam-qadam bajarish ko`rsatiladi. Bunda nazariy qismning taaluqli bo`limlari bo`yicha tushuntirish va ularga murojaatlar minimal bo`ladi. Anonaviy laboratoriya ishlari analogi sifatida ko`rgazmali kompyuterli modellari beriladi (laboratoriya praktikumi mustaqil dasturiy mahsulot sifatida ajratilishi mumkin).

***Nazorat qismi.** Nazariy qismdan savollar hamda misol va masalalarni yechish bo`yicha testlar to`plami (noto`g`ri javob bo`lganda, vazifani qayta yechishni bajarish bo`yicha ko`rsatmalar berishni kiritish).

***Ma`lumotlar qismi** Bu qism o`z ichiga quyidagilarni olish mumkin: predmetli ko`rsatkich (axtarish tizimi); asosiy konstosetlar, o`lchamlar, fizik va kimyoviy xususiyatlar va boshqa predmetlar ko`rsatilgan jadvallar; asosiy formulalar ro`yxati; grafik, jadval yoki boshqa shakllarda berilgan turli kerakli ma`lumotlar

***YOrdam tizimi.** Elektron uslubiy ta`minot (yoki ishlanma) bilan ishlash qoidalari va uslubiy tavsiyalar beriladi.


Dasturiy ta`minotga talablar

YAratilayotgan dasturiy taominot quyidagilarni amalga oshirish kerak;

- Turli platformalarda ishlay olish;
- «On-line» rejimida o`qitish imkoniyati;
- Kuchli imkoniyatli funksiyalari bilan birga ishlatishda sodda bo`lish;
- O`qitishda interaktiv yordam berish;
- O`rganilayotgan bir bo`limdan boshqa bo`limga tezkor o`tishi;
- Individual va jamoa bo`lib o`qishni olib borilishi;
- O`rganilayotgan ob`ektlar israrxisini qulay ko`rinish;
- O`rganilayotgan bo`limlar ketma-ketligini ixtiyoriy tartibda (taklif etilgandan tashqari) tanlab olish imkoniyati;
- Mashg`ulot jarayonida o`quvchi tomonidan kerakli axborotni kiritish va uni yangilash imkoniyati;
- O`quvchi uchun individual vazifalarni bajarish bo`yicha natijalar monitoringi;
- Fayllarni, grafiklarni, katta diagrammalarni standart betlarda chop etilishi;
- Diagramma, grafiklarni ko`rsatish imkoniyatlari, ularning kerakli qismini o`quvchi tomonidan tanlab olinishi;
- O`rganilayotgan tizimning ishlash jarayonini animasiyasi;
- O`quvchi individual vazifani bajarayotganda uning xatosini nazorat qiluvchi vositalar borligi;
- Grafikli interfeyslarning standartlarini qo`llab-quvvatlash;
- GIF va JPEG tasvirlarini ko`rsatish;
- Glossariy bilan ishlash;
- Bo`limlarni, sarlovhalarni, rasmlarni, formulalarni, yo`naltirishlarni axtarish tizimini qo`llanilganligi;
- SHriftlarning turli xilligi;
- Formulalarni masshtablash;
- Bo`limlarni, formulalarni, grafiklarni, rasmlarni nomerlash;
- Bo`lim, formula, manbalarga yo`naltirish (cco`lki) borligi va ular bilan ishlash;
- O`quvchining xarakatlarini yozib borish imkoniyati;
- Audio, video bilan birga olib borish;
- Kompyuter darsligining dasturiy taominotini butunligi nazorat qilib borish;
- Qo`shimcha yozuvlar uchun joylar borligi, izoxlar uchun ko`rsatilgan joylarda bo`sh darchalarni tashkil etish mumkinligi;

2.2. Dasturiy ta`minotni o`rnatish talablari va o`rnatish bosqichlari

A4DeskPro Website Builder – veb-yaratuvchi dasturchilar uchun oddiy dasturiy ta`minot hisoblanib, flash shablonlar asosida turli xil menyularni yaratish, ichki menyular yaratish hamda mavjud berilgan parametrlar asosida chiroyli effektlarga ega bo`lgan sahifalarni yaratish imkoniyatiga ega bo`lgan dasturiy vosita hisoblanadi.




A4DeskPro Flash Website Builder dasturiy ta`minotining asosiy xarakteristikasi hamda xususiyatlari quyidagilardan iborat:


- “hammasi bir zumda”, ya`ni flesh-ved-sayt yaratish imkoniyati
- hech qanday lisenziyasiz CD disklarni yaratish va foydalanish imkoniyati hamda ilovalar yaratish.
- Ogromno`y vo`bor shablonov professionalno`x flesh-veb-saytov.
- flesh-veb-sayt shablonidagi ranglarni o`zgartirish imkoniyati.
- flesh-element yoki dasturlashtirish uchun alohida bilimlarni talab qilinmaydi.
- ko`ptillilik, ya`ni ingliz, xitoy, yevropa tillari, yapon, koreys va boshqa tillarni ham yaxshi tushuna oladi.
- ixtiyoriy xost serveridan turib veb-saytni yoki mavjud shablonni ko`rish yoki tahrir qilish imkoniyati mavjud.
- menyularni i ichki menyularni yaratish va xarakat berish imkoniyati mavjud.
- ustun bo`yicha polosa bo`ylab mantlarni ko`ra olish imkoniyati
- sozlash imkoniyatining ko`pligi, masalan, rang, shaffoflik, giperishoratlar va x.k.
- kontent matnini sozlash imkoniyati
- orqa fondagi musiqa ovozlarni sozlash imkoniyati mavjud.
- XML orqali boshqarish imkoniyati mavjud.
- sayt menyularini tahrirlash hamda dinamik saytlarni qo`shish imkoniyatlari ham mavjud.

Endi dasturni o`rnatish uchun uni o`rnatiluvchi dasturiy ta`minotini olamiz. Bu dastur internet tarmog`ida bepul tarqatilganligi sababli uni internetdan ko`chirib olamiz. Dasturni o`rnatiladigan faylini nomi


Easy_Website_Pro5_Setup.exe deb nomlanib uni ustida sichqoncha tugmasini 2 marta bosiladi va quyidagi rasmda keltirilgan o`rnatish jarayoni boshlanadi:




SHundan so`ng dasturni oynasida paydo bo`lgan “Next” tugmasini bosamiz. Ekranda dasturni o`rnatish bhyicha asosiy talablar keltirib o`tiladi. Bu talablar bilan albatta tanishib olish lozim bo`ladi. Dastur bilan ishlash bo`yicha talablarni o`qib chiqqach, quyidagi oynada hosil bo`lgan yerdan “I Agree” tugmasini bosamiz.



Tugma bosilganidan so`ng, kompyuter xotirasida mavjud joy va talab qilinadigan joy haqida ma`lumotlar beriladi. SHuningdek, dasturni o`rnatiladigan joy aktiv holatda taklif qilinadi. Bu joyni o`zgartirmagan ma`qul. SHunday so`ng, “Install” tugmasini bosamiz.



Dasturni o`rnatish jarayoni boshlanadi Bu jarayon quyidagi rasmda keltirib o`tiladi.



Dastur o`rnatib bo`lingach, uni o`rnatilganligi haqidagai ma`lumot quyidagi ekrandagi shaklda beriladi. Agar dasturni ishga tushirishni hojlasak, Easy_Website_Pro5 belgisini aktivlashtirib qo`yamiz va OK tugmasini bosamiz.




Dastur ishga tushiriladi, bunda barcha biblioteka fayllarini o`qib olinayotganligi haqidagi ma`lumotlar quyidagi oynadagi shaklda beriladi:



SHundan so`ng, dastur bir oy muddatda foydalanish uchun berilayotganligi haqidagi ma`lumot, shuningdek dasturni aktivlashtirish haqidagi tugma ham beriladi. Bu oyna quyidagi rasmda keltirib o`tiladi.




Ok tugmasini bossak, ekranda quyidagi asosiy Easy_Website_Pro5_Setup dasturining ishchi oynasi ochiladi. Bu yerdan biz dasturiy mahsulotlarni yaratishni boshlashimiz mumkin bo`ladi.



2.3. Easy_Website_Pro4 dasturida shablonlar, rasmlar va multimedia imkoniyatlardan foydalanish


Easy_Website_Pro4 dasturini ishga tushirish orqali uning asosiy ishchi oynasini ochib oldik. Endigi asosiy vazifa shu dasturning imkoniyatlarini hamda dasturda shablonlar, rasmlar va multimedia imkoniyatlarini ochib beraylik. Dastur oynasida yettita element mavjud bo`lib, ularni quyidagi rasmda keltirib o`tiladi. Bu rasmning pastki qismida maxsus shablonlarni ochish tugmasi mavjud bo`lib, uni ustida sichqoncha tugmasini bosish orqali mavjud sahifalarni ko`rinishlarini hosil qilinadi.




Bu sahifalar turli sohalarga mos ravishda saralab olingan bo`lib, ularni yaratiladigan sahifaning maqsadidan kelib chiqib tashkil qilinadi. Bu oyna yuqorida keltirilgan yettita asosiy tugmalardan biri “Project” ishoratini tanlash orqali ochiladi. Bu oyna ko`rinishi quyidagi rasmda keltirib o`tiladi:



Oynaning chap qismida yaratiladigan loyihaning sohalar bo`yicha saralangan papkalari beriladi. Bu papkalarining nomlari quyidagi rasmda keltirib o`tiladi.




Oynadagi mavjud bo`limlarni tanlash orqali bir nechta shu sohaga oid sahifalarni ochish va ularni tanlash imkonini beradi. Bu oynalar quyidagi rasmda keltirib o`tiladi:




Kerakli sahifani shablon uchun tanlab olingach, quyidagi yettita bo`lim orqali uni imkoniyatlarini ochib berilishi mumkin:



Bu bo`limlarni tanlash sahifaga kiritiladigan o`zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, sahifa dizaynini tanlash uchun "Design" ishoratini tanlash mumkin. Bunda quyidagi rasmda keltirib o`tilgan sahifa ko`rinishi hosil bo`ladi:




Bu sahifada sahifaning dizaynini o`zgartirish imkonini beradi. Bu yerda ham sahifa dizaynini tanlashda bir nechta o`ziga xos menyuchalar mavjud bo`lib, ular ichida kerakli bo`limni tanlash va kerakli dizaynni tanlash va OK tugmasini bosish mumkin bo`ladi. Bu dizayn ko`rinishlari quyidagi rasmda keltirib o`tiladi:



Keltirib o`tilgan yettita bo`limdan yana biri "Logo" bo`limi hisoblanib, unda logotiplarni tanlash va o`rnatish imkoniyati mavjud:




Bu bo`limni tanlash orqali ekranda quyidagi sahifa ko`rinishini hosil qilish mumkin bo`ladi:




Endigi asosiy bo`limlardan biri "Menu" hisoblanib, unda menyularni yaratish ishlari amalga oshiriladi:




Bu bo`limni tanlash quyidagi sahifani ochishga imkon beradi:



Bu sahifada turli shakldagi menyularni yaratish va foydalanish imkoniyati mavjud. Quyidagi rasmda menyu yaratishda foydalanish mumkin boʻlgan shablonlar keltirib oʻtiladi:




Asosiy boʻlimlarni yana biri “Pages” hisoblanib, uni ochish orqali sahifaning turli shakllarini tanlash va foydalanish imkoniyati mavjud. Ular haqidagi maʼlumotlar quyidagi rasmda keltirib oʻtiladi:




SHuningdek, yettita asosiy boʻlimlarning yana biri “Intro” deb nomlanib, unda amalga oshirilishi mumkin boʻlgan vazifa sahifa boshiga titul

o`rnatish va turli ovozlarni qo`shish hamda rasmlarni o`rnatish imkoniyatlari mavjud. Bu sahifaning ko`rinishi quyidagi rasmda keltirib o`tiladi:




SHuningdek, shablonlarni ochishda chiqariladigan namoyishlarni ham tanlash imkoniyati mavjud bo`lib, bu imkoniyat mavjud bo`lgan sahifa quyidagi rasmda keltirib o`tiladi:




Asosiy bo`limlardan yana biri "Extras" deb nomlanib, bu bo`lim sahifasi quyidagi rasmda keltirib o`tiladi:



Bo`limlarning eng oxirgisi esa, “Publish” deb nomlanib, unda yaratilgan sahifani namoyish etish va html shakliga o`tkazish imkoniyati mavjud. Bu imkoniyat quyidagi rasmda keltirib o`tiladi:



Kuyidagi rasmda esa, publikasiya qilinadigan sahifani qaysi papkaga yo`naltirish yoki uni o`zgartirish bo`yicha so`raladigan taklif namoyish etiladi:



